

Ibratli hikoya



18:05 / 02.12.2018 24021

Bir kuni hazrati Hasan Basriyning huzurlariga bir ayol kelib, shunday dedi:

- Ey, Allohning do'sti! Sizga savollarim bor, javob berishingizni istayman,
- So'rang, - dedilar Hasan Basriy hazratlari.
- Ey.. Imom! Din pokligi, din javhari, din xazinasi nima? - dedi ayol.

Hasan Basriy hazratlari:

- Siz ayting, biz ham eshitib, o'rganaylik, - dedilar. Ayol aytdiki:
- Din pokligi - tahorat olmoqdir.

Din javhari - Allohdan qo'rqmoqdir.

Din xazinasi - ilmdir. Ayol yana qo'shimcha qildi.

Din ma'dari - hayodir. Alloh hayoli qulini maqtaidi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam) «hayo - imonning bir bo'lagi» ekanini bildirganlar.

Hazrati Hasan Basriy bu ayolning so'zlarini eshitib, sevinchdan hayratu hayajonga tushdilar, ayolning so'ziga muxlis bo'ldilar.

"Ey, farzand!" kitobidan